



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETINING PEDAGOGIKA INSTITUTI



**13-14
MAY
2022**

**“BOSHLANG‘ICH VA
MAKTABGACHA TA’LIM
SIFATI VA SAMARADORLIGINI
OSHIRISH MUAMMOLARI:
INNOVATSIYA, RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR VA
XALQARO
TAJRIBALAR”**

**Respublika ilmiy-amaliy
anjumani**

Buxoro - 2022



OPEN ACCESS



**2-SINF MATEMATIKA DARSLARIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISHNING
O'QUVCHILARDA AXBOROT KOMPETENTLIGINISHAKLLANTIRISHDAGI AHAMIYATI**
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6567387>

Saidova Mohinur Jonpo'latovna,
BuxDUPI dotsenti
Idiyeva Niginabonu Erkin qizi,
BuxDUPI 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yangi nashrdan chiqqan 2-sinf matematika darsligi mazmuni, foydalilaniladigan interfaol metodlarning ahamiyati, berilgan topshiriqlarning o'quvchilarda axborot kompetentlikni oshirishdagi vazifalari va ularning tahlili haqida fikr va mulohazalar yoritib berilgan.

Tayanch so'zlar: Milliy dastur, matematik tushunchalar, ta'lif metodlari, interfaol metodlar, kompetentlik, axborot kompetentligi, axborot bilan ishslash, tushunchalar tahlili, kubik, qizil va yashil kartochkalar bilan ishslash, FSMU metodi.

*Noqobil o'qituvchi haqiqatni shunchaki aytadi-ko'yadi,
yaxshisi esa uni topishga o'rgatadi.
V.O. Distervig*

Ta'lif tizimini rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan umumiy o'rta ta'lifning Milliy o'quv dasturida ta'kidlanganidek, mamlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi", 2019-yil 9-iyuldagagi "Matematika ta'lifi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I. Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-sonli Qarori, 2020-yil 7-maydagagi "Matematika sohasidagi ta'lif sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020-yil 24- yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama tako- millashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan.

Hammamizga ma'lumki, matematika fani inson aqlini charxlaydi, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikka o'rgatadi va eng muhim fikr-mulohaza yuritishga chorlaydi hamda tafakkurni kengaytiradi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek "Matematikahamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi".

Bu yo'nalishlarda o'quvchilar uchun yangi, zamonaviy elektron darsliklar zamon talablari asosida tuzilib, nashrdan chiqarilmoqda. 2021-yilda nashrdan chiqarilgan Matematika darsligining rang- barangligi va topshiriqlarning kognitiv va kreativligi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

"Biz ustozni otaday ulug' deb bilgan, doimo ardoqlagan ma'rifatparvar xalqning vakillarimiz. Men ham o'qituvchi, muallim deganda o'zim uchun eng aziz va hurmatli bo'lgan, ziyoli va zamonaviy, samimiy va mehribon insonlarni tasavvur qilaman. Chunki hammamizga ham shu muallim saboq va ta'lif berib, mehribon ota-onalarimiz qatorida tarbiyalagan.

Bugungi kunda O'zbekistonning yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratyapmiz. Bunda bizning eng yaqin ko'makchilarimiz ustoz va murabbiylar, ilmiy va ijodkor ziyorilardir.

Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lif sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi," – deya ta'kidlaydi Shavkat Mirziyoyev.

Bu borada Finlandiya tajribasi misol qilib keltirildi. Ushbu mamlakat umumiy savodxonlik, tabiiy fanlar va matematika bo'yicha dunyoda eng ilg'orlardan bira.

Ta'lif metodlari ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishini, o'qitish jarayonini qanday qilib tashkil etish va olib borish kerakligini belgilab beradi, ya'ni o'qituvchi tomonidan o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish hamda o'quvchilar tomonidan o'sha nazarda tutilgan ilmiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish faoliyatida qo'llaniladigan yo'llarni o'z ichiga oladi. Ta'lif metodlarini biz 3ga ajratamiz:

- **Og'zaki metod;**
- **Ko'rgazmali metod** o'z o'rnida 2 ga bo'linadi: demonstratsiya va illustratsiya;

- Amaliy metod.

Interfaol metodlar esa ta’lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



1-rasm. Interfaol metodlarning ahamiyati

Interfaol metodlarni qo'llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Hozirda ta’lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlaridan biri interfaol ta’lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars jarayonida interfaol usullaridan borgan sari kengroq foydalanib kelmoqdalar.




2-rasm. Interfaol metodlarning turlari.

“Kubik” metodi

“Kubik” metodi asosida 2-sinf matematika darsida berilgan “To‘g‘ri to‘rburchak” mavzusini tahlil qilaylik.

3-rasm.



"Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash" metodi

Bu metodda o'qituvchi to'g'ri va noto'g'ri ta'rif, jumlalarni aytadi, to'g'ri va noto'g'ri yechilgan misollarni ko'rsatadi. O'quvchilar to'g'ri jumlaga yashil kartochkani, noto'g'ri jumlaga esa qizil kartochkani ko'rsatadi. Bu metod o'quvchilarni tezkor fikrashga va topqirlilikka, chaqqonlikka, aqlni charxlashga undaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'qituvchi har bir mavzuga mos interfaol metodni tanlasa va undan ta'lism jarayonida to'g'ri foydalana olsa, ta'lism mazmuni o'quvchi shaxsiga aniq va tushunarli, esda qolarli bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, biz o'quvchiga osonlikcha to'g'ri javobni, haqiqatni aytib qo'yishimiz emas, balki ularga haqiqatni topadigan yo'lni ko'rsatib qo'yishimiz kerak. Toki ularning o'zi to'g'ri javobni izlasin, marraga o'zining harakati bilangina borsin. O'qituvchidan yordam esa o'shato'g'ri yo'lni ko'rsata olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Umumiy o'rta ta'limming Milliy o'quv dasturi.
- Boshlang'ich ta'lim Konsepsiysi.
- Abduqodirov A. A., Hayitov A. G., Shodiyev A. A. Axborot texnologiyalari. — Toshkent, 2004. - 76 b.
- Abdullahayeva B. S., Saidova M. J., Dilova N. G. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik. 2021, - 300 b.
- Saidova M. J. Boshlang'ich sinf matematika darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasini takomillashtirish: Ped. fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgandiss. Toshkent, 2020, 142 b.
- Saidova M. J., Qosimov F. M. Laboratoriya mashg'ulotlari uchun ishlanmalar. Metodik qo'llanma. Buxoro, 2019, 122 b.
- Saidova M. J., Boshlang'ich sinflar uchun nazorat ishlar to'plami. Metodik qo'llanma. Toshkent, 2019, 233 b.
- Abdurahmonova N., O'rino boyeva L. Ikkinci sinf matematika darsligi. — Toshkent: "Yangiyo'lpolygraf Servis". – 2018.
- Azizxodjaeva N. N. O'quv jarayonining samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalar. T.: 2007.
- [11. http://uz.infocom.uz](http://uz.infocom.uz)
- [12. http://library.ziyonet.uz](http://library.ziyonet.uz)
- [13. https://www.inter-nauka.com](https://www.inter-nauka.com)



BOSHLANG'ICH VA MAKTABGACHA TA'LIM SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI: INNOVATSIYA, RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA XALQARO TAJRIBALAR



OPEN ACCESS

BUXORO 2022